



YAPON TILIDA XUSHMUOMALALIK DARAJALARI VA UNI IFODALOVCHI LEKSIK LAKUNALAR

Nuraliyev Sardor Faxriddin o'gli

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish: yapon tili yo'nalishi talabasi.

sardornuraliyev344@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada yapon tilida xurmat shakllarini ifodalovchi 尊敬語 (sonkeigo) va 謙讓語 (kenjougo) larda leksik lakunalarni ko'rib chiqdik. Yapon tilida hurmat shakli va xushmuomalalik shakllarini yasashda fe'llarga maxsus qo'shimchalarni qo'shish orqali amalga oshiriladi. Quyida har bir fe'l guruhlari alohida misollar bilan izohlanib o'tildi. Ushbu lakunalar o'zbek tiliga tarjima qilinganda qanday lingvomadaniy qiyinchiliklar tu'g'dirishi mumkinligi muammolari tahlil qilindi.

KIRISH

Tilshunoslikda "lakunalogiya" hali endi rivojlanish bosqichidagi fanlardan biri bo'lganligi uchun, ko'pgina lingvistik atamalar singari, "lakuna" va "lakunariylik" atamalari ham asta sekinlik bilan o'z ifodasini topmoqda. Lekin tillardagi lakunalarning o'ziga xos jihatlari, izohi, aniq va bir manolilikdan biroz yiroqligi olimlarning lakunalar ustida yanada mukammalroq izlanishlar olib borishiga undamoqda. Murakkab birliklar hisoblanadigan lakunalarni soddalashtirish, izohlash yuzasidan turli fikrlar keltirilgan va natijada lakunalarga berilgan tariflar "Lakuna bu hodisaning o'zi, qo'llanilishi majburiy bo'lgan joylarda o'z o'rnida mavjud bo'la olmaydigan leksik birlikdir." 6;190].

G.B.Birova "Lakuna – bu madaniyatlararo munosabatlarda so'z yoki so'z birikmasi orqali ifodalangan (erkin va frazeologik birikmalar) grammatik kategoriya bo'lib, ular qiyoslanayotgan tillarning birida mavjud bo'lsa, ikkinchisida mavjud bo'lmaydi" deb lakunaga ta'rif beradi [7, B.77-86]. Haqiqatdan ham, mavjud bo'lgan madaniyatlararo muloqotda til va madaniyatning yaqin o'zaro



munosabatlariga tayanadi. Ikkinchi tomondan, tilshunosning fikricha, lingvokulturologik va madaniyatga doir lakunalarining aniqlanishi til va madaniyatning o‘zaro munosabatlaridagi ayrim konkret shakllarning korrelyasiya qilinishiga ham imkoniyat yaratishi mumkin. «Lakunalar umumiy manoda bir lokal malaniyatdagi mavjud tushunchalarni ikkinchi madaniyatda mavjud emasligini fikrcasiya qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yapon tilida suhbatdoshga nisbatan xushmuomalikda bo‘lish, suhbatdoshni hurmat qilish muloqotning eng asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Buning uchun maxsus shakllar, leksik birliklar, hatto maxsus iboralar va grammatik qurilmalar ham mavjud.

Xushmuomalalik leksik birliklari yapon tilida 敬語 – keigo deb ataladi va so‘zlovchining suhbatdoshi yoki III shaxsga nisbatan hurmatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari quyidagi uch holatda qo‘llaniladi.

- 1) Agar so‘zlovchi suhbatdoshidan yosh jihatdan kichik va ijtimoiy mavqe jihatdan pastroq bo‘lganda;
- 2) Suhbat jarayonida u haqida gapirilayotgan III shaxsning yoshi va ijtimoiy mavqeidan kelib chiqqan holda;
- 3) Rasmiy holatlarda;

Xushmuomalalik shakllari o‘z navbatida suhbat turi, gapiruvchi shaxs va suhbatdosh yoki III shaxsning o‘rtasidagi munosabatlar yoshi, mansabi, va boshqa bazi jihatlardan kelib chiqqan holda quyidagi turlarga bo‘linadi.

1. 尊敬語 (sonkeigo) hurmat va xushmuomalalik shakli.
2. 謙讓語 (kenjougo) Kamtarinlik shakli.

1. 尊敬語 (sonkeigo) hurmatni ifodalovchi shakli, so‘zlovchi, suhbatdosh yoki III shaxsning harakat va holatini hurmat shaklida ifodalash uchun qo‘llaniladi. Hurmat shaklining murakkab jihatlari shundan iboratki, mazkur shakl hurmat darajalariga ega va ana shu jihatdan leksik lakunalarga duch kelinadi.

Oddiy daraja. So‘zlovchi suhbatdoshiga hurmat bilan murojaat qilayotganligini ifodalaydi. O‘zbek tilida juda kam holatlarda “senlash” va “sizlash”



holatlariga o'xshatish mumkin. Bunda fellar o'zi mansub bo'lgan guruhga mos tarzda hurmat shaklga aylantiriladi.

1-guruhga mansub fe'llar "I" qatordan "A" qatorga o'zgartirilib, れます qo'shiladi.[18;196]

Neytral shakl	Hurmat shakl	Tarjima
か <u>き</u> ます kakimasu	か <u>かれ</u> ます kakaremasu	Yozmoq
い <u>そ</u> ぎます isogimasu	い <u>そが</u> れます isogaremasu	Shoshilmoq
の <u>み</u> ます nomimasu	の <u>まれ</u> ます nomaremasu	Ichmoq
あ <u>そ</u> びます asobimasu	あ <u>そ</u> ばれます asobaremasu	O'ynamoq
か <u>い</u> ます kaimasu	か <u>われ</u> ます kawaremasu	Sotib olmoq
ま <u>わ</u> します mawashimas	ま <u>わ</u> されます mawasaremasu	Aylantirmoq

2-guruh fellari esa "E" qatorga られます qo'shiladi.[18;196]

Neytral shakl	Hurmat shakl	Tarjima
お <u>し</u> えます oshiemasu	お <u>し</u> えられます oshieraremasu	O'rgatmoq
た <u>べ</u> ます tabemasu	た <u>べ</u> られます taberaremasu	Yemoq
あ <u>け</u> ます akemasu	あ <u>け</u> られます akeraremasu	Ochmoq
* <u>み</u> ます mimasu	* <u>み</u> られます miraremasu	Ko'rmoq
* <u>お</u> きます okimasu	* <u>お</u> きられます okiraremasu	Uyg'onmoq

3-guruh fellari o'zakdan o'zgaradi va られます qo'shiladi.[18;196]

Neytral shakl	Hurmat shakl	Tarjima
き <u>ま</u> す komasu	こ <u>ら</u> れます koraremasu	келмоқ
し <u>ま</u> す shimasu	さ <u>れ</u> れます saremasu	Бажармоқ, қилмоқ



小林先生に あいましたか（あわれましたか）

Kobayashi sensei ni aimashitaka (awaremashitaka)

Kobayashi ustoz bilan ko‘rishdingizmi?

毎朝 何時に おきますか（おきられますか）

(Maiasa nanjini okimasuka)(okiraremasuka)

Har tongda soat nechida uyg‘onasiz?

コーヒー飲みますか（飲まれますか）

(Kohi nomimasuka (nomaremasuka)

Kofe ichasizmi?

Yuqori daraja. お(O) fel ます(masu) shakli tushib qoladi va になりま
す(ni narimasu) grammatik qurilmasi yordamida oddiy darajadagi hurmat shaklga
nisbatan yuqoriroq va kuchliroq manoni ifodalaydi. Lekin 2 - guruh istisno tarzida
mavjud bir bo‘g‘in (mora)li fellar hamda 3 - guruh fellariga nisbatan qo‘llanishi
mumkin emas. Bunda, ushbu fellar ifodalaydigan

ish – harakatni anglatadigan maxsus o‘rindosh (variant) lar mavjud.

Neytral shakl	Hurmat shakl	Tarjima
よみます yomimasu	およみになります o yomini narimasu	O‘qimoq
すわります suwarimasu	おすわりになります o suwarini narimasu	O‘tirmoq
かえます kaerimasu	おかえりになります o kaerini narimasu	Uyga qaytmoq
だします dashimasu	おだしになります o dashini narimasu	Topshirmoq

どうぞ、座って （おすわりになって）ください

Douzo, suwatte (osuwari ni natte) kudasai.

Marhamat, o‘tiring.

ぶじに かえりました（おかえりになりました）か。

Bujini kaerimashita (okaerini narimashita) ka?



Sog‘–salomat uyingizga etib bordingizmi?

Hurmat shakli maxsus o‘rindoshga ega bazi fellar.

学長がいます（いらっしゃいます）か。

Gakuchouga imasu (irashshaimasu)ka?

Rektor shu yerdalarmi?

来週の鈴木さんの結婚式について しています（ごぞんじです）
か

Raishuuno Suzukusanno kekkonshikinituite shitte imasu (gozonji desu)ka?

Keyirngi haftadagi janob Suzukining nikoh to‘yi haqida xabardormisiz?

2.謙讓語(kenjougou) Kamtarinlik shakli, hurmat shaklning yana bir ko‘rinishi bo‘lib, u so‘zlovchining suhbatdosh yoki III shaxsga nibatan o‘z hurmatini ifodalashda, bajargan ish – harakatini kamtarinlik bilan ko‘rsatishdir. Bunda “お(O)” va “ご(GO)” hurmat va kamtarinlik ifodalovchi grammatik old qo‘shimchalarga felning ます(masu) shakli qo‘shimchasi tushurib qoldirilgan ko‘rinishiga します(shimasu) felining qo‘shilishi bilan hosil qilinadi.[18;204]

Neytral fe‘l	Kamtarinlik shakli	Tarjima
かえます kaerimasu	おかえりします o kaeri shimasu	Uyga qaytmoq
だします dashimasu	おだしします o dashi shimasu	Ttopshirmoq
かきます kakimasu	おかきします O kaki shimasu	Yozmoq
しらせます shirasemasu	お しらせ します O shirase shimasu	E‘lon qilmoq

Yuqorida keltirilganidek kamtarlik ko‘rinishlarida ham bazi fellarning kamtarlik shakli o‘rindoshlari mavjud.



Neytral fe'l	Kamtarinlik shakli o'rindoshi	Tarjima
いきます ikimasu	まいります	Bormoq
きます kimasu	Mairimasu	Kelmoq
います imasu	おります orimasu	Davomiylik ifodalovchi birlik
たべます tabemasu	いただきます	Yemoq
のみます nomimasu	Itadakimasu	Ichmoq
もらいます moraimasu		Olmoq
みます mimasu	はいけんします haikenshimasu	Ko'rmoq
いいます iimasu	もうします moushimasu	Aytmoq
ききます kikimasu	うかがいます	So'ramoq
いきます ikimasu	Ukagaimasu	Bormoq
しって います Shitte imasu	ぞんじて おります Zonjite orimasu	Bilmoq
あいます aimasu	お めに かかります O meni kakarimasu	Uchratmoq

Yapon tilida suhbat jarayonida neytral shakl hisoblangan **ます** hamda **です** shakllaridan foydalanish ham mavjud bo'lib u eng quyi hurmat darajasini ifodalaydi. Chunki muloqot jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan "Oddiy shakl" ham mavjud bo'lib, u o'zaro yaqin munosabatdagi kishilar, yaqin tanishlar, tengdoshlar o'rtasida keng qo'llaniladi.

XULOSA

Tilda milliy o'ziga xos elementlarning mavjudligi masalasi oxirgi o'n yilliklarda jahon tilshunoslari tomonidan turlicha aspektlarda tadqiq qilinib, bu farqlar yuzasidan turli xil atamalar orqali talqin qilinib kelinmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda ular "lakuna" deb atalib, ular tushirib qoldirilgan tushuncha, tarjimaga



tortilmaydigan so'zlar, ekvivalentsiz leksika, nol leksema, leksik nol, tasodifiy qoldirib ketishlar, tarjima qilinmaydigan leksika, adekvatsiz leksika kabi izohlangan.

Ushbu maqolada yapon tilida hurmat va xushmuomalalikni anglatuvchi lakunalar ustidagi tadqiqotimiz o'z ifodasini topgan. Yapon tilida suhbatdoshga yoki 3-shaxsga nisbatan xushmuomala bo'lish muloqot jarayonining eng asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Yuqorida hurmat shakli leksik birliklar, maxsus iboralar, frazeologiyalar va grammatik qurilmalar orqali yaslashini ko'rib chiqdik.

ADABIYOTLAR

1. Алпатов В.М. “Япония: Язык и культура” Альманах — М.: Муравей, 2002.— 224 с.
2. Алпатов В.М. Япония: язык и общество. М.:Муравей, 2003. – 208с. - (Японский язык и японская культура).
3. Алпатов В.М., Ключкова Т.Б. О мужском и женском вариантах японского языка. Вопросы языкознания. – М., 1980.- №3 С. 58-68
4. Абдуразакова Ш.Р. К проблеме перевода социо—культурных лакун. \\Вестник Самарийнского Государственного университета иностранных языков. Самара 2017 №3.
5. Власенко С.В. Перевод лакунизированного текста как процесс принятия переводческих решений в условиях неопределенности // Межкультурная коммуникация и перевод: Материалы 5-й межвуз. науч. конф. МОСУ.- М: 2006.- С. 211-214.
6. Дымарский М.Я. Возможно ли онтологическая интерпритация понятия лакуны // Лакунарность в языке, картина мира , словаре и тексте. Новосибирск Изд— НГПУ 2009
7. Карасик В.И. – Культурные доминанты в языке// языковая личность: культурные концепты. Волгоград – Архангельск, 2006.



8. Usmanova Sh. Madaniyatlararo muloqotda lakunalarning oʻrni // Lingvist. Ilmiy maqolalar toʻplami. V. – T.: “Akademnashr”, 2013.
9. Usmanova Sh. Madaniyatlararo muloqotda noverbal vositalarning ahamiyati // Madaniyatlararo muloqot masalalari: til, matn, tarjima. Ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Toshkent: ToshDShI, 2016.
- 10.Qoraboev U., Soatov Q . Oʻzbekiston madaniyati. –Toshkent: “Tafakkur boʻstoni”,2011.
- 11.Yusupov Oʻ.Q. Mano,tushuncha, konsept va lingvokulturema atamalari hususida // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T., 2011.
- 12.Xudaybergenova Z., Usmonova Sh. “Tarjimaning lingvomadaniy masalalari” moduli boʻyicha oʻquv – uslubiy majmua. Toshkent – 2016.
13. 井出 幸子、かわなり 巫女 「日本の女性語と世界の女性語」 Γ.C. 1984, №3
14. 山本・今村 「日本のくらしと文化」 東京・2006年
15. いまいづみ ただよし 「日本のけいご」 東京・1955ねん
16. ほもと きくお「美しい けいご」 東京・1972ねん
17. みんなの日本語初級 1 (Minna no nihongo shokyu 1) 2007
18. みんなの日本語初級2 (Minna no nihongo shokyu 2) 2007